

**IKKI TILLILIK (BILINGVIZM) VA UNING IJTIMOY TA'SIRI**

To'ychiyeva Madinaxon Sherquzi qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ikkitillilik — bilingvizm fenomeni, uning shakllanish omillari, turlari, ijtimoiy va madaniy hayotga ko'rsatadigan ta'siri keng yoritilgan. Bilingvizmning tarixiy ildizlari, zamonaviy globallashuv jarayonidagi o'rni, shuningdek, ta'lim tizimidagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekiston, Kanada va Shveysariya kabi mamlakatlardagi til siyosati misolida ikki tillilikning real ijtimoiy taassurotlari, iqtisodiy va kommunikativ afzalliklari shuningdek, ayrim psixolingvistik muammolar ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bilingvizmning jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishida, madaniy integratsiya jarayonida hamda zamonaviy kasbiy kompetensiyalar shakllanishida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Bugungi kunda dunyo aholisi orasida taxminan 43 % inson kamida ikki tilni biladi.(Eurostat, 2023).Ikki tillilik nafaqat kommunikativ ko'nikma, balki jamiyatning madaniy ochiqligi, iqtisodiy rivoji va global hamkorlikka tayyorligining ko'rsatkichiga aylangan.

KALIT SO'ZLAR: Bilingvizm, ikki tillilik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, til siyosati, globallashuv, madaniy integratsiya, ta'lim, kommunikativ kompetensiya.

ANNOTATION: This article provides an extensive analysis of bilingualism as a linguistic and sociocultural phenomenon. It examines the origins, types, and mechanisms of bilingual development, as well as its social, cultural, and economic implications. Using examples from Uzbekistan, Canada, and Switzerland, the study highlights the role of bilingualism in national language policy, cultural integration, and modern education systems. The analysis reveals that bilingualism contributes significantly to intellectual growth, social cohesion, and global competitiveness, while also presenting certain challenges such as language interference and the weakening of native-language competence. Today, it is estimated that about 43 percent of the world's population speaks at least two languages. Bilingualism is not only a communicative skill, but also an indicator of a society's cultural openness, economic development, and readiness for global cooperation.

KEYWORDS: Bilingualism, multilingualism, sociolinguistics, psycholinguistics, language policy, globalization, cultural integration.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida ikki tillilik (bilingvizm) ijtimoiy, psixologik va lingvistik jihatdan jadal rivojlanayotgan hodisalardan biridir. Bilingvizm — bu shaxs yoki jamiyatning ikki tilda muloqot qila olish darajasi bo'lib, u tafakkur jarayoniga, madaniy aloqalarga, ta'lim va iqtisodiy rivojlanishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.Bunday



holat tarixiy migratsiya, ko'p millatli hududlar, savdo aloqalari, ta'lim tizimlari yoki davlat til siyosati natijasida shakllanadi. Bugungi globallashuv sharoitimizda bir nechta tilda erkin muloqot qila olish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy ustunlik ni belgilovchi muhim ko'nikmalardan biriga aylanmoqda. Shuning uchun ham bilingvizm fenomeni zamonaviy lingvistika, sotsiolingvistika va psixolingvistika yo'nalishlarining eng muhim tadqiqot mavzularidan biri bo'lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Til bu ijtimoiy hodisa ekanligi hammamizga ma'lum. Inson o'z ehtiyojlaridan , xohish-istaklaridan kelib chiqib, o'z ona tilidan tashqari boshqa tillardan ham foydalanishi mumkin. Bilingvizm haqida fikr yuritar ekanmiz, "Bilingvizm o'zi qanday sotsiologik , lingvistik hodisa?" kabi savollar tug'ilishi tabiiy hol, albatta. Bilingvizm (ikki tillilik) deganda, ikki tilda erkin fikrlay oladigan , ikki tilni ham birday egallaganlik tushunildi. Lingvistika fanida bilingvizm psixolingvistik, sosiolingvistik va neurolingvistik jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab hodisa sifatida izohlanadi. Masalan, kanadalik olim J. Kumminsning tadqiqotlariga ko'ra, ikki tilni yaxshi biladigan shaxslar miyada ma'lumotlarni qayta ishlashda yuqoriroq kognitiv faollikni namoyon qiladi. Bu esa ularning diqqat, xotira va tahliliy fikrlash darajasini oshiradi. Tilshunoslar bilingvizmni muvozanatli bilingvizm, dominant bilingvizm, passiv bilingvizm kabi turli shakllarga ajratadi. Bunday tasnif ikki tillilikning qanday darajada shakllanganini va uning jamiyatdagi ahamiyatini aniq belgilashga yordam beradi.

Bugungi tadqiqotlar ikki tillilikning ta'lim jarayoniga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlamoqda. 1962-yilda Peal va Lambert tomonidan olib borilgan mashhur tadqiqotda bilingv o'quvchilarning IQ darajasi va mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlari monolingv o'quvchilarnikiga qaraganda yuqoriroq ekanligi aniqlangan. Shuningdek, ikki tilni biladigan o'quvchilar abstrakt tushunchalarni tezroq o'zlashtiradi va masalalarga turli nuqtayi nazardan yondashish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida ingliz tili, rus tili, koreys tili, xitoy tili kabi xorijiy tillarni chuqur o'rgatishga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Xalq ta'limi vazirligining 2024-yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra, o'quvchilarning 65 %dan ortig'i kamida bitta xorijiy tilni boshlang'ich darajada biladi. Bu esa mamlakatda yosh avlodning bilingv bo'lib yetishayotganini ko'rsatadi. Iqtisodiy va kasbiy jihatdan nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyo miqyosida ikki tillilik mehnat bozorida katta ustunlik beradi. 2023-yilgi LinkedIn ma'lumotlariga ko'ra, ingliz, ispan, arab va xitoy tillarini biladigan kadrlar global mehnat bozorida 15–30% yuqoriroq daromad oladi. AQShda esa ikki tilli xodimlarga bo'lgan talab so'nggi 10 yil ichida uch baravar oshganligi ma'lum bo'ldi.. O'zbekistonda turizm, IT, xalqaro biznes, tarjima sohasi va diplomatiya kabi yo'nalishlarda ikki tilni biladigan yoshlar uchun keng imkoniyatlar mavjud. Masalan, IT Park'ning 2023-yilgi hisobotida xorijiy





mijozlar bilan ishlayotgan kompaniyalarning 70 % ingliz tilida erkin soʻzlasha oladigan mutaxassislariga ehtiyoj sezayotgani qayd etilgan. Bu holat bilingual kadrlarning iqtisodiy rivojlanishdagi oʻrni tobora ortib borayotganini koʻrsatadi.

Ijtimoiy jihatdan ikki tillilik jamiyatda madaniyatlararo muloqot va tolerantlikni kuchaytiruvchi muhim omil hisoblanadi. Masalan, Shveysariyada aholining 60 %dan ortigʻi uch tilni biladi va bu koʻp millatli jamiyatning tinch-totuv yashashiga xizmat qilmoqda. Kanadadagi ingliz–fransuz ikki tillilik modeli esa mamlakatning siyosiy barqarorligi va fuqarolar birligini mustahkamlaydi.

Oʻzbekistonda oʻzbek–rus ikki tilliligi koʻp millatli ijtimoiy muhitda oʻzaro muloqotni yengillashtiradi. Bundan tashqari, ingliz tilining faol oʻrganilishi jamiyatning global madaniyat bilan integratsiyalashuviga yordam berayotgani sir emas, albatta.

XULOSA

Muxtasar aytganda, bilingvizm jamiyatda madaniy integratsiya, iqtisodiy rivojlanish va global kommunikatsiya uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Toʻgʻri til siyosati, sifatli taʼlim va rasmiy qoʻllab- quvvatlash mavjud boʻlsa, ikki tillilik shaxsning ham jamiyatning ham taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, til aralashuvi, ona tilining zaiflashuvi kabi muammolarni bartaraf etish uchun til meʼyorlarini mustahkamlash, til madaniyatini oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cummins, J. (2000). Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Multilingual Matters.
2. Peal, E., & Lambert, W. E. (1962). The Relation of Bilingualism to Intelligence. Psychological Monographs, 76(27).
3. Baker, C. (2011). Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. 5th edition. Multilingual Matters.
4. Grosjean, F. (2010). Bilingual: Life and Reality. Harvard University Press.
5. Weinreich, U. (1953). Languages in Contact: Findings and Problems. Linguistic Circle of New York.
6. Hoffmann, C. (1991). An Introduction to Bilingualism. Longman.
7. Bialystok, E. (2001). Bilingualism in Development: Language, Literacy and Cognition. Cambridge University Press.
8. Bialystok, E., Craik, F. I. M., & Freedman, M. (2007). Bilingualism as a Protection Against the Onset of Dementia. Neuropsychologia, 45(2).
9. Fishman, J. A. (1972). The Sociology of Language: An Interdisciplinary Social Science Approach to Language in Society. Newbury House.
10. Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi (2024). Taʼlim sohasida xorijiy tillarni oʻrgatish boʻyicha statistik maʼlumotlar. (Rasmiy hisobot).



11. LinkedIn Economic Graph (2023). Global Skills and Employment Trends Report. LinkedIn Corporation.

12. O'zbekiston Respublikasi IT Park (2023). O'zbekiston IT sohasida inson kapitali va mehnat bozori rivoji bo'yicha tahliliy hisobot.